

"UFQ" ROMANIDA JANNAT XOLA OBRAZI

Xudoymurodova Hurriyat Muxiddinovna

TerDU dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10563549>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Said Ahmadning "Ufq" romanidagi Jannat xola obrazi tahlili berilgan. Jannat xola va o'zbek onalari obrazlari tahlili dadillangan.

Kalit so'zlar: ona, ayol, Jannat xola, Vatan, Said Ahmad.

JANNAT'S CHARACTER IN THE NOVEL "HORIZON"

Abstract. This article provides an analysis of the image of Aunt Jannat in the novel "Ufq" by Said Ahmed. The analysis of the images of Aunt Jannat and Uzbek mothers is bold.

Key words: mother, woman, Aunt Jannat, Motherland, Said Ahmed.

ПЕРСОНАЖ ДЖАННАТ В РОМАНЕ «ГОРИЗОНТ»

Аннотация. В данной статье проводится анализ образа тети Джаннат в романе Саида Ахмеда «Горизонт». Смелым является анализ образов тети Джаннат и узбекских матерей.

Ключевые слова: мать, женщина, тетя Джаннат, Родина, Саид Ахмед.

Mashhur o'zbek adibi Said Ahmad nasrnavis va dramaturg, o'zbek adabiyotida hikoya ustasi sifatida tanilgan. Uning ko'plab yuqori badiiy mahorat bilan yozilgan novella va hajviy hikoyalari milliy adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Mislsiz xizmatlari uchun adibimiz "Buyuk xizmatlari uchun" va «Do'stlik» ordenlari hamda «O'zbekiston Qahramoni», «O'zbekiston xalq yozuvchisi», «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» kabi sharafli unvonlarga sazovor bo'lgan. Taniqli shoira Saida Zunnunova bilan baxtli hayot kechirgan. Yozuvchining hikoya, qissa va romanlaridagi qahramonlar bilan kitobxon go'yo birga yashaydi, hayotdan zavq oladi va, shu bilan birga, iztirob chekadi. Adib har qanday kitobsevarning qalb torini cherta oladi. Said Ahmad nasrning deyarli barcha janrlarida qalam tebratdi. Uning «Qadr don dalalar», «Hukm», «Ufq», «Jimjitlik», «Kelinlar qo'zg'oloni», «Kuyov», «Qorako'z majnun», «Ko'prikda qolgan tong», «Ot bilan suhbat» kabi asarlari el orasida sevib mutolaa qilinadi.

Adib ijodining cho'qqisi sanalgan «Ufq» trilogiyasi nafaqat Said Ahmad ijodida, balki XX asr o'zbek adabiyotida ulkan voqea bo'ldi. Asarda trilogiya janrining o'ziga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va asosiy janriy belgilari yaqqol namoyon bo'lgan. Asarda xalqimizning Ikkinchi jahon urushigacha, urush davri, urushdan so'nggi yillardagi hayoti qalamga olingan.

«Ufq»ning birinchi kitobi - «Qirq besh kun» romanida Katta Farg'ona kanali qurilishidagi qahramonona mehnat, qudratli xalq harakati yorqin aks ettirilgan. Ikkinchi kitob - «Hijron kunlarida» qismida vatandoshlarimizning urush davridagi og'ir hayoti, kurashi, vatanparvarligi, mardligi ehtiros bilan hikoya qilingan. Trilogiyaning uchinchi kitobi - «Ufq bo'sag'asida» urushdan so'nggi dastlabki yillardagi xarakterli voqealar, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish harakati tasvirlangan.

Trilogiyada o'zbek xalqiga xos bo'lgan bolajonlik va oriyatlilik, bag'rikenglik va fidoyilik, mehribonlik va el-yurt oldidagi burchini chuqur his etish singari xislatlar Tursunboyning onasi Jannat xola obrazida yorqin aks etgan. Ikromjon aka singari Jannat xola qalbida qochoq o'g'liga nisbatan muhabbat va g'azab tug'yon uradi. Shuning uchun ham Abdulla Qahhor: «Ufq» qochoq

haqidagi roman emas, aksincha, qochoqni bag‘riga sig‘dira olmagan xalq haqidagi asardir», - deb bu romanga yuqori baho bergan edi. Asar rus va ingliz tillariga bir necha bor tarjima qilingan.

Nafaqat, o‘zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotida Said Ahmadning serqirra va boy asarlari adiblar uchun ijod maktabi vazifasini o‘tagan. Adibning o‘zi aytganidek, har bir kitobxon qalbida bosgan izlari, aytgan so‘zlari qoldi.

Jannat xola - Tursunboyning onasi, mehribon va mehnatsevar inson. Har bir onaning farzandga bo‘lgan muhabbati cheksiz albatta, ammo bu ma’suma insonning muhabbatini ta’riflashga tillar ojizdir. Farzanddan bir shirin so‘z eshitmagan, uning qahramon bo‘lishini intiqlik bilan kutgan, hatto bezgak tutib kasal bo‘lganda ham uning holiga achinmagan bu o‘g‘ilning xudbinligi dilni xira qiladi, kitobxonning g‘ashini keltiradi. Asar ichiga tushib qolsa-yu, “ey farzand ko‘zingni och, onang kun sayin so‘lib bormoqda, sening bu badbaxtligingga ortiq chiday olmaydi onang sho‘rlik”, desa...

“Jannat xola endi cho‘ldan bir qadam ham boshqa yoqqa jila olmasdi. Uning yuragi shu cho‘lda. To‘qayga pinhoni qatnab yurishiga, chodirdan ustara yo‘qolishiga sabab bor edi” . Onaning dardi yolg‘iz bolasi-da. Birov bilib qolishidan hadiksiraydi. Kasal bo‘lsa-da o‘zini tetiklikka oladi. Koshki buni Tursunboy anglab yetsa. “Ona-bola ko‘p gaplasholmadilar. Jannat xola, bolasini qabrga qo‘yib kelayotgandek yuragida og‘ir dard bilan orqasiga qaytdi” . Achinib ketasan bu onaga. Qandoq yo‘l tutadi endi? Ona qalbi azob va iztirobda. Ona vujudini kemirayotgan dardni pisand qilmayotgan farzandini ahvolini qarang. Nizom o‘tin orqalib kelayotgan Jannat xolaning yukini oladi. Bu uzoqdan kuzatib turgan Tursunboyga yomon ta’sir qiladi, onasining mehrini tortib olib qo‘ygandek bo‘ladi.

Jannat xola tashvishda yashaydi, kasal bo‘lib yotib qolsa bolasini ahvoli nima kechishidan xavotirda. O‘ylab-o‘ylab, bir qarorga kelgan ona farzandini urushga qaytishga ko‘ndirmoqchi bo‘ladi. Bolaning ayblari onasiga bilinmaydi.

Tursunboy kasal. Ona iztirobda, ovozsiz yig‘laydi. Baxtsiz ona, uning barcha orzulari chilparchin bo‘ldi, yurak bag‘ri qon bo‘ldi. Chorasizlik qurshab olgan. Iztirobli holat.

“Ona ikki qo‘lini osmonga ko‘tarib faryod chekdi.

- E, Xudo, menda shuncha qasding bormidi!

Uning havoga ko‘tarilgan qo‘llari shaloplab ikki tizzasiga tushdi. U shu kuyi qancha o‘tirganini bilmaydi” . Uni qidirib kelishganida yana chorasiz qoladi, farzandini ko‘zi qiymaydi, tashlab ketolmaydi. Ketgach, esa aqldan ozadi.

Keyin esa yolg‘iz bolasidan ko‘ngil uzolmay, burila-burila jon beradi. Eng yomoni, uning dafn marosimini Tursunboy uzoqdan kuzatadi. Uning dardida, firoqida tamom bo‘lgan onaizorini so‘nggi yo‘lga ham kuzatmaydi.

“...Ona, qazoyim yetib olamdan o‘tsam, bolam o‘z qo‘li bilan qabrga qo‘yadi, deb umid qilardi. Bolasi qabrga yaqin kelmay, bo‘riga o‘xshab to‘qaydan xunuk qarab turardi.

Ona, bolam orqamda qoladi, chirog‘imni yoqadi, deb niyat qilardi. Bolasi bunday o‘ylarni boshiga keltirmasdi...

...Quyosh qip-qizil cho‘g‘ bo‘lib botayotgan cho‘l oqshomida hijronzada. Alamzada, farzand dog‘ida kuyib ado bo‘lgan onaini tuproqqa qo‘yishdi” .

Baxtsiz ona taqdiri shunday tugaydi. Biroq, Jannat xola haqidagi fikrni Ikromjon va Tursunboyning uchrashuvida yangraydi:

“Onang qandoq xotin edi! Qandoq xotin edi? Nomard! Ona qabrga qo‘yilayotganda ko‘rib turib yoniga borolmagan, oqpadar! O‘z qo‘li bilan tuproqqa qo‘yishdan qochgan yaramas! Onang qandoq xotin edi-ya! Sen juvonmargga qandoq mehr qo‘ygan edi-ya! Sen uni o‘ldirding! O‘zing o‘ldirib, yana o‘zing uni tuproqqa qo‘yganlarini tomosho qildingmi? Iflos!...

...- Yot-begonalar tobutni yelkaga olib ketayotganlarini ko‘rib chidab turdingmi? Yo‘lingga termulib ko‘r bo‘lgan onaga shumi mukofot? Butun umrini, jonini, rohatini bag‘ishlagan onaga shumi mukofot? Alifdek qomatini sen bukding, yuzlariga ajinlarni sen solding, ko‘zlaridan nurni sen o‘g‘irlading, shu yorug‘ duyoni qorong‘u qilding! Sen juvonmargdan qandoq umidlari bor edi onangning. Sening o‘rningga it boqsak bo‘lmasmidi?! Yelkamda ko‘tarib katta qilganman. Shu yelkalarimda katta qilganman. Og‘irimni yengil qilarsan, deb o‘ylagandim. Mushkulimni oson qilarsan, deb o‘ylagandim. Oq sut bergan onangni go‘rga qo‘yishga yaramading. Onaga vafo qilmagan bola, kimga vafo qiladi?! Yurt ishiga yaramagan bola, qay ishga yaraydi?!” .

Jafokash onaga berilgan baho shu emasmi? Farzand deb o‘zi yashamagan onaning shum taqdir shu emasmi?!

REFERENCES

1. Said Ahmad, “Ufq” trilogiya. — Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. — 366-bet.
2. Said Ahmad, “Ufq” trilogiya. — Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. — 369-bet.
3. Said Ahmad, “Ufq” trilogiya. — Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. — 374-bet.
4. Said Ahmad, “Ufq” trilogiya. — Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. — 376-bet.
5. Said Ahmad, “Ufq” trilogiya. — Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. — 429-bet.